



ZAMONAVIY O‘ZBEK TILIDA NEOLOGIZMLARNING PAYDO BO‘LISHI

Fayzullayeva Sarvinoz Mahmud qizi

Samarqand davlat universiteti pedagogika instituti

Annotasiya. Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek tilida neologizmlarning paydo bo‘lish sabablari manbalari va ularning til tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Globallashuv fan texnika taraqqiyoti axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda ijtimoiy siyosiy o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelayotgan yangi so‘z va atamalarining o‘zbek tiliga kirib kelish jarayonini yoritib berilgan. Shuningdek o‘zbek va xorijiy tilshunos olimlarning neologizmlar haqidagi ilmiy qarashlari keltirilib zamonaviy neologizmlarning turlari va ularning leksik tizimidagi ahamiyati misollar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. neologizm zamonaviy o‘zbek tili, yangi so‘zlar leksik qatlam.

Kirish

Mustaqillikdan keyingi davrda o‘zbek tilida tub ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bu jarayon natijasida tilimiz lug‘at tarkibida ko‘plab yangi so‘z va atamalar paydo bo‘ldi. Xususan, davlat boshqaruvi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va ommaviy kommunikatsiya sohalarining rivojlanishi o‘zbek tili leksikasining yangilanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ma’lumki, til jamiyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy hodisadir. Til — kishilarning o‘zaro fikrlashuvi va muloqoti uchun xizmat qiladigan noyob ijtimoiy vositadir. Shavkat Rahmatullayev o‘zining “Hozirgi adabiy o‘zbek tili” asarida tilning ijtimoiy mohiyatini alohida ta’kidlaydi. Demak, neologizmlar ham jamiyat ehtiyoji asosida yuzaga keladi va tilga singib ketgan taqdirdagina faol qo‘llanadi.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida yuz beradigan har qanday yangilik, avvalo, tilning lug‘at tarkibida o‘z aksini topadi. Yangi so‘z va birikmalarga nisbatan neologizm termini qo‘llanadi. Neologizm (yunoncha *neos* — yangi, *logos* — so‘z) — narsa va tushunchalarni ifodalash uchun yangi hosil qilingan yoki boshqa tillardan kirib kelgan, yangilik bo‘yog‘i sezilib turgan so‘z va birikmalardir. Masalan: elektron darslik, elektron kutubxona, veb-sayt, marketing, menejer, smartfon.



“Menejer” soʻzi ingliz tilidan oʻzlashgan boʻlib, korxona yoki tashkilot faoliyatini boshqaruvchi yuqori malakali mutaxassis maʼnosini anglatadi. “Veb-sayt” esa inglizcha *web* — “toʻr”, *site* — “joy” soʻzlaridan tashkil topgan boʻlib, internet tarmogʻidagi sahifa yoki manzilni bildiradi.

Shu bois zamonaviy oʻzbek tilining rivojini neologizmlarsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Har bir soʻz oʻz davrida yangi boʻlgan. Masalan, VIII–IX asrlarda oʻzbek tiliga fors-tojik va arab tillaridan kirib kelgan bogʻ, madrasa, yomgʻir kabi soʻzlar ham dastlab neologizm boʻlgan. Bugungi kunda esa ular umumisteʼmol leksikaga aylangan.

Neologizmlar tilga singib ketishi uchun ikki muhim talabga javob berishi lozim:

1. *Yangi soʻz tushunarli, maʼnosi aniq va tinglovchiga tez yetib boradigan boʻlishi kerak.*
2. *U tilda mavjud va yashovchan soʻz yasash modellariga mos ravishda yaratilgan boʻlishi lozim.*

Neologizmlarning paydo boʻlish sabablari koʻp. Texnika va texnologiya sohasidagi yangiliklar yangi atamalarning yuzaga kelishiga sabab boʻlmoqda: chatbot, sunʼiy intellekt, blogger, kiberxavfsizlik, vlog, kontent, media.

“Media” soʻzi lotincha *medium* — vosita, vositachi soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, axborotni uzatish vositalari va ommaviy axborot tizimini anglatadi. “Blogger” ingliz tilidan oʻzlashgan boʻlib, internetdagi shaxsiy sahifasi yoki ijtimoiy tarmoq orqali maʼlum mavzularda material joylashtiruvchi faol foydalanuvchini bildiradi. Globallashuv jarayonida oʻzbek tiliga ingliz, rus, arab va fors tillaridan koʻplab soʻzlar kirib kelmoqda: gadjet, dron, robototexnika, QR-kod, layk, post. “Post” soʻzi rus tilidagi *post* orqali kirib kelgan boʻlib, lavozim, qoʻriqlash punkti yoki oʻrin maʼnolarini bildiradi. “Gadjet” inglizcha *gadget* — kichik qurilma, moslama degan maʼnoni anglatadi.

Iqtisodiyot sohasida ham koʻplab neologizmlar uchraydi: avans, avtarkiya, avizo, agent, akkreditiv va boshqalar. “Akkreditiv” lotincha *accredo* — ishonaman soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, bank tomonidan maʼlum mablagʻni toʻlash haqida beriladigan hujjatni anglatadi. “Avtarkiya” (yunoncha *autarkeia* — oʻz-oʻziga yetarlilik) esa xoʻjalikning tashqi aloqalarsiz faoliyat yuritishini bildiradi. Til ijtimoiy mohiyatga ega hodisa boʻlib, jamiyat aʼzolari ongida mavjud va ular uchun umumiy fikrni



shakllantirish hamda ifodalashga xizmat qiladi. Zamonaviy o'zbek tilidagi yangi leksika ikki guruhga bo'linadi:

A) **Sof yangi leksemalar** — tilimiz uchun avval begona bo'lgan va endigina kirib kelgan birliklar: lizing, marketing, test, internet va boshqalar. Vaqt o'tishi bilan ular neytral leksika tarkibiga o'tadi. Masalan, kosmos, televideniye so'zlari bugungi kunda yangilik bo'yog'ini yo'qotgan.

B) **Faollashgan leksemalar** — iste'moldan chiqib ketgan, keyinchalik qayta qo'llanila boshlagan birliklar: hokim, viloyat, tuman, oqsoqol, sardor. Shuningdek, yangi ma'no kasb etgan so'zlar ham shu turga kiradi: savdogar, tadbirkor, ishbilarmon, biznes. Bunday birliklar tezda umumiste'mol leksikaga aylanadi.

Neologizmlarning paydo bo'lishi va yo'qolishi ularning lug'atlarga kiritilishi yoki kiritilmasligida namoyon bo'ladi. Agar yangi so'z jamiyat tomonidan faol qo'llansa, tilshunoslik tomonidan ham qabul qilinadi. Biroq neologizmlar adabiy til me'yorlariga mos ravishda yaratilishi va to'g'ri qo'llanishi zarur.

Neologizmlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **O'zgaruvchan neologizmlar** — tor doirada qo'llaniladigan yangi o'zlashmalar.
2. **Tarqalgan neologizmlar** — jamiyatda qo'llanayotgan, ammo hali to'liq me'yorlashmagan birliklar.
3. **Turg'un (stabil) neologizmlar** — keng tan olingan va faol ishlatiladigan so'zlar.

Neologizmlarni o'rganishda hududiy va ijtimoiy farqlar ham muhimdir. Shahar va qishloq joylarda ayrim atamalar turlicha qabul qilinishi mumkin. Yosh avlod internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi so'zlarni tez o'zlashtirmoqda. Masalan, trend, xayp, storis so'zlari dastlab internet muhiti uchun xos bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda oddiy so'zlashuv nutqida ham qo'llanmoqda. Ommaviy axborot vositalari, reklama va bloglar neologizmlarning tez tarqalishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, neologizmlar tilning yashovchanligini ta'minlaydi. Zamonaviy o'zbek tilidagi yangi so'zlar tilning ichki imkoniyatlari hamda o'zlashma birliklar asosida shakllanmoqda. Asosan ingliz va rus tillaridan kirib kelayotgan neologizmlar lug'at boyligimizni kengaytirmoqda. Neologizmlar til uchun xavf emas,



balki uning rivojlanish manbaidir. Muhimi — yangi soʻzlarning adabiy til meʼyorlariga moslashuvi va milliy xususiyatlarni saqlab qolishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Uloqov N . Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent.2016
- 2 Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent 2006.
- 3 Sayfullayeva R .Abuzalova M.Gʻaybullyeva N. Tilshunoslik nazariyasi.Toshkent.2021.
- 4 Sayfullayeva R.R boshqalar.Hozirgi oʻzbek adabiy tili.Toshkent.2010.